




MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI


OTA-ONALAR BILAN HAMKORLIK: OTA-ONALAR MAJLISLARI SSENARIYLARI

Reja:




KUN TARTIBI: FAOL HAMKORLIK SARI

1. Ishonchli muhit yaratish va trening maqsadini belgilash



2. Maktab va ota- onalar hamkorligining asosiy vazifalari



3. Interaktiv usullar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish

4. Trening olingan tassurotlar va keying qadamlar

Farzand tarbiyasida eng muhim omil – bu **maktab va oilaning birgalikdagi hamkorligi**dir. Bola rivojlanishi uchun faqat o'qituvchi yoki psixolog sa'y-harakatlari kifoya emas, balki ota-onalarning faol ishtiroki ham talab qilinadi. Maktab va oila o'rtasidagi ochiq muloqot bolaning emotsional holati, o'qishga bo'lgan munosabati hamda ijtimoiy moslashuvini yaxshilaydi.



Ota-onalar majlislarining asosiy maqsadlari:

- Bola rivoji va o'qishidagi muammolarni birgalikda hal qilish
- Tarbiyaviy jarayon bo'yicha ma'lumot almashish
- Maktab hayotidagi yangiliklar bilan tanishtirish
- Ota-onalarni farzand tarbiyasida faol ishtirok etishga undash

MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINING ASOSIY VAZIFALARI



Ochiq muloqot

Maktab va ota- onalar
o'rtasidagi shaffoflik va
doimiy axborot
almashinuvi



O'zaro tushinish

Bolaning ehtiyojlarini
birgalikda aniqlash va
ularni qondirish uchun
yagona yondashuvni
shakllantirish



Birgalikda rivojlanish

Bolaning shaxsiy,
akademik va ijtimoiy
rivojlanishini qo'llab-
quvvatlash

MAKTAB VA OILA HAMKORLIGINING ASOSIY AHAMIYATI

1. Bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish

– Oila mehr-oqibat va tarbiya bersa, maktab bilim va ijtimoiy tajriba beradi. Bu ikki omil uyg'unlashganda bola barkamol inson bo'lib voyaga yetadi.

2. Ta'lim-tarbiya uzviyligi

– Agar ota-ona va o'qituvchi bir xil talablardan foydalansa, bola o'zini aniq va barqaror muhitda his qiladi. Aks holda qarama-qarshi ta'sirlar bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladi.

3. Ijtimoiy moslashuv

– Ota-ona va maktab birgalikda bola uchun jamiyat qoidalari va qadriyatlarini tushuntiradi. Bu bola ijtimoiy faol, mas'uliyatli va mehnatsevar bo'lishiga yordam beradi.

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash

– Ota-onaning mehr-muhabbati va o'qituvchining rag'bati bolaning o'qishga qiziqishini kuchaytiradi, o'ziga ishonchini oshiradi.

5. Muammolarni birgalikda hal qilish

– Bola intizomi, o'qishdagi qiyinchiliklari yoki ruhiy muammolari oila va maktab hamkorligida tezroq hal etiladi.

MAKTAB VA OILA HAMKORLIGI SHAKLLARI

- Ota-onalar yig'ilishlari va davra suhbatlari
- Individual suhbatlar (ota-ona va sinf rahbari o'rtasida)
- Ota-onalarni dars va tadbirlarga jalb qilish
- Pedagogik maslahat va psixologik treninglar
- Uy vazifalarida ota-onalarning ishtiroki

OTA-ONALAR YIG'ILISHLARINING

An'anaviy shakllar: afzalliklari va kamchiliklari	Zamonaviy interaktiv shakllar
❖ O'qituvchining ma'ruza uslubi: O'qituvchi asosiy axborot beruvchi rolida. ❖ Kam interaktivlik: ota-onalarning faol ishtiroki cheklangan. ❖ Axborot almashinuvi bir tamonlama. An'anaviy yig'ilishlar asosan axborot berishga qaratilgan bo'lib, ota-onalarning fikr-mulohazalariga kam e'tibor beriladi	❖ Davra suhbat: umumiy muammolarni muhokama qilish va yechimlar topish. ❖ Guruh ishi: kichik guruhlarda aniq vazifalarni bajarish. ❖ Trening va rolli o'yinlar: amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish. Ushbu yig'ilish ota-onalarni faol ishtirok etishga undaydi, o'zaro tajriba almashinishga va muammolarni birgalikda hal qilishga yordam beradi.

PSIXOLOGNING OTA-ONALAR BILAN ISHLASHDAGI ROLI

Psixologning vazifalari	Amaliy ko'rinishi	Kutiladigan natija
Farzand psixologiyasini tushuntirish		
Bolaning yosh davri xususiyatlari haqida ota-onalarga misollar va tushuntirishlar berish	Ota-onalar farzandining ruhiy rivojini chuqurroq tushunadi	
Tarbiyaviy muammolarda maslahat berish	Intizom, o'qishga befarqlik, texnologiyaga qaramlik kabi muammolarda yo'l-yo'riq ko'rsatish	Ota-onalar to'g'ri pedagogik yondashuvni qo'llaydi
Ota-ona va o'qituvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash	Muloqotda vositachilik qilish, hamkorlikdagi qarorlar ishlab chiqish	Bola uchun yagona tarbiyaviy strategiya shakllanadi
Bolaga individual yondashuvni shakllantirish	Psixodiagnostika, testlar va suhbatlar asosida bolaning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash	Farzand uchun individual rivojlanish rejasi tuziladi
Amaliy mashqlar va treninglar o'tkazish	Rolli o'yinlar, kichik guruh mashqlari, kommunikativ treninglar	Ota-onalar amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladi
Refleksiya tashkil etish	Yig'ilish oxirida ota-onalarning his-tuyg'ulari va fikrlarini umumlashtirish	Ota-onalarda ongli yondashuv va o'z-o'zini tahlil qilish shakllanadi

DAVRA SUHBATI


Yig'ilish turi: yig'ilish-suhbat, interaktiv

Yig'ilishning maqsadi: tarbiyaning dolzarb masalalarini muhokama qilish, ota-onalarni bir-birlari bilan tanishtirish, tajriba almashish, umumiy yondashuvni shakllantirish, dialog uchun shart-sharoitlar yaratish hamkorlik, psixologik muhitni o'zgartirish, ota-onalar, psixolog, o'qituvch / sinf rahbari o'rtasida ishonchli munosabatlarni yaratish.

Davomiyligi: 60 daqiqa.

Taklif etilgan mutaxassislar: psixolog, o'qituvchi / sinf rahbari.

Tarqatma materiallar: markerlar (qalam yoki ruchka), A4 varaqlari, qo'lda yasalgan beyjklar (kichik to'rtburchak qog'ozlar, to'g'nog'ich yoki yopishqoq lenta), savolli kartochkalar "Kayfiyat guldastasi" refleksiyasi uchun shakl



Yig'ilish jarayoni. O'qituvchi / tarbiyachi / psixolog ota-onalar bilan salomlashadi. Yig'ilishning tanlangan mavzusiga qarab, mavzuning dolzarbligi haqida qisqacha og'zaki ma'ruza qiladi, yig'ilish mavzusi bilan bog'liq muammo va vaziyatlarning oldini olish muhimligini ta'kidlaydi. Masalan, tanlangan mavzu — Bolalik yoshining xususiyatlari.

O'qituvchi / tarbiyachi / psixolog:

— Assalomu alaykum, aziz ota-onalar! Yig'ilishda ishtirok etishga vaqt ajratganingiz uchun tashakkur. Bugun biz bolalik yoshining xususiyatlari haqida gaplashamiz. Bolalik — bu tug'ilishdan to o'smirlik davriga qadar bo'lgan muhim jismoniy, kognitiv, hissiy va ijtimoiy o'zgarishlar bilan tavsiflangan hayot davri. Har bir yosh bosqichi bolaning rivojlanishiga va uning atrofidagi dunyo bilan o'zaro munosabatiga ta'sir qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Bola rivojlanishining umumiy xususiyatlari:



- Notekis rivojlanish: Rivojlanish notekis, tezlanish va sekinlashuv davrlari bilan sodir bo'ladi;
- O'zaro bog'liq rivojlanish: Rivojlanishning barcha sohalari o'zaro bog'liq, bir sohadagi o'zgarishlar boshqalariga ta'sir qiladi;
- Individual farqlar: Har bir bolaning individual xususiyatlari va qobiliyatini hisobga olgan holda, o'z tezligida rivojlanadi;
- Atrof muhitning ta'siri: Atrof-muhit, oila, maktab, tengdoshlar, madaniyat bolaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi;
- Qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoj: bolalar qo'llab-quvvatlashga, tushunishga va sog'lom va barkamol rivojlanish uchun sharoit yaratishga muhtoj.

Munozara uchun savollar

1. Farzandlaringiz qanday? Bir soʻz bilan aytganda.
2. Farzandlaringizni nima quvontiradi va ularni nima xafa qiladi?
3. Farzandingiz hissiyotlarini qanday boshqaradi?
4. Farzandingiz uchun nima oson va qiyinchiliklarga nima sabab boʻladi?
5. Farzandlaringizning qaysi harakatlari sizni quvontiradi va nimadan xafa boʻlasiz?
6. Boshqa ota-onalarga qanday maslahat bera olasiz? Bir soʻz bilan aytganda.



“Kayfiyat guldastasi” refleksiya uchun shakllar



**OTA-ONALAR YIG'ILISHINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK ISHLANMALAR VA TAVSIYALAR
TO'PLAMIDA TO'LIQ BERILGAN**



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIMNI
RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI



Ishtirokingiz uchun rahmat!